



THE IMPACT OF THE INTEGRATION OF RATIONAL AND IRRATIONAL KNOWLEDGE ON THE PROCESS OF ACTIVITY

Mustafa Khidirov

Head of the Department of Humanities and Natural Sciences, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

*International School of Finance Technology and Science Institute
Uzbekistan*

e-mail: xmt.2017@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: rational knowledge, irrational knowledge, knowledge integration, philosophy of activity, intuition, perception, cognitive processes, human activity, thinking, analytical thinking, theory of knowledge, gnoseology, artificial intelligence, intellectual activity, systems of thinking, creativity.

Received: 20.05.25

Accepted: 22.05.25

Published: 24.05.25

Abstract: This study focuses on the essence of the interaction between rational and irrational knowledge in ensuring the effectiveness of human activity, as well as the integrative role of their coexistence. It explores how rational and irrational knowledge influence activity from the perspectives of psychology, philosophy, and cognitive sciences, and offers an in-depth analysis of this dialectical relationship based on modern academic literature. The findings demonstrate that the integration of these types of knowledge plays a crucial role in maintaining intellectual and emotional balance in human activity.

RATSIONAL VA IRRATSIONAL BILIMLAR INTEGRATSIYASINING FAOLIYAT JARAYONIGA TA'SIRI

Mustafo Xidirov

Gumanitar va tabiiy fanlar kafedrasi mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

International school of finance technology and science instituti

O'zbekiston

e-mail: xmt.2017@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ratsional bilim, irratsional bilim, bilim integratsiyasi, faoliyat falsafasi, intuitsiya, sezgi, kognitiv jarayonlar, inson faoliyati, tafakkur, analitik tafakkur, bilim nazariyasi, gnoseologiya, sun'iy intellekt, intellektual faoliyat, tafakkur tizimlari, ijodkorlik.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda inson faoliyati samaradorligini ta'minlashda ratsional va irratsional bilimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatning mohiyati va ularning integratsion rolga e'tibor qaratilgan. Shu asosda psixologik, falsafiy va kognitiv fanlar nuqtai nazaridan ratsional va irratsional

bilimlarning faoliyatga ta'sirini ochib beradi, zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida ushbu dialektik munosabatni chuqur tahlil etadi. Tadqiqot natijalari inson faoliyatining intellektual va emotsional muvozanatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

ВЛИЯНИЕ ИНТЕГРАЦИИ РАЦИОНАЛЬНОГО И ИРРАЦИОНАЛЬНОГО ЗНАНИЯ НА ПРОЦЕСС ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Мустафа Хидиров

Заведующий кафедрой гуманитарных и естественных наук, доктор философии (PhD) по философии

International school of finance technology and science Институт

Узбекистан

e-mail: xmt.2017@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: рациональное знание, иррациональное знание, интеграция знаний, философия деятельности, интуиция, восприятие, когнитивные процессы, человеческая деятельность, мышление, аналитическое мышление, теория познания, гносеология, искусственный интеллект, интеллектуальная деятельность, системы мышления, креативность.

Аннотация: В данном исследовании внимание сосредоточено на сущности взаимосвязи между рациональным и иррациональным знанием в обеспечении эффективности человеческой деятельности, а также на их интеграционной роли. С позиций психологии, философии и когнитивных наук раскрывается влияние рационального и иррационального знания на деятельность, а также осуществляется глубокий анализ данной диалектической взаимосвязи на основе современных научных источников. Результаты исследования показывают, что интеграция этих форм знания играет важную роль в обеспечении интеллектуального и эмоционального баланса в человеческой деятельности.

Kirish.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida bilim va faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik doimiy tahlil etib kelingan. Har qanday faoliyatning asosi sifatida bilim, uning shakllanish manbalari va ongda qayta ishlanish mexanizmlari chuqur ilmiy va falsafiy tahlilni talab qiladi. Bilim inson tafakkurining eng yuksak mahsuli bo'lib, u insonning tashqi muhitga nisbatan ongli munosabati, muammolarni anglash va ularni hal qilishdagi faol ishtirokining mevasidir. Ammo bilim har doim faqat mantiq va tajriba orqali shakllanmaydi. Uning zahirida inson ongining sezgi, intuitiv idrok, tasavvur va emotsional holatlari bilan bog'liq chuqur

qatlamlar mavjud. Ana shu asoslarga tayanib, zamonaviy fanda bilim ikki asosiy shaklga – ratsional va irratsional bilimlarga ajratib qaraladi.

Materiallar va metodlar

Ushbu tadqiqotda ratsional va irratsional bilimlarning inson faoliyati jarayonidagi o‘zaro aloqadorligini o‘rganish maqsadida falsafiy-tahliliy va kognitiv-psixologik yondashuvlar asos qilib olindi. Metodologik jihatdan tadqiqot dialektik, gnoseologik va prakseologik asoslarga tayanadi. Dialektik metod yordamida ratsional va irratsional bilimlar o‘rtasidagi qarama-qarshi, ammo o‘zaro to‘ldiruvchi munosabatlar ochib berildi; gnoseologik yondashuv orqali esa bilish jarayonidagi sezgi, intuitiv idrok va analitik tafakkur o‘rtasidagi tafovutlar va ularning integratsiyalashuvi tahlil qilindi.

Shuningdek, kognitiv fanlar doirasidagi ilmiy manbalar, xususan Daniel Kahneman (2011), Antonio Damasio (1994, 1999), va boshqa zamonaviy olimlarning qarashlariga tayanildi. Ularning inson tafakkuri, qaror qabul qilish va emotsional-intuitiv jarayonlar haqidagi nazariyalari tahlilning asosiy manbasi bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot davomida sifatli tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, kontent-tahlil, komparativ tahlil, strukturaviy-analitik metod, shuningdek kognitiv xaritalashtirish usullari orqali ratsional va irratsional bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik asoslandi. Umuman olganda, ushbu metodologik yondashuvlar asosida ratsional va irratsional bilimlarning integratsiyasi faoliyatning nafaqat kognitiv, balki emotsional va aksiologik o‘lchamlarida ham muhim rol o‘ynashi isbotlab berildi.

Muhokama va natijalar

Inson tafakkurining shakllanishi va faoliyat jarayonida ratsional hamda irratsional bilimlarning nisbati faqat biologik yoki psixologik omillar bilan emas, balki tarixiy-madaniy jarayonda ijtimoiy ong shakllarining rivojlanish darajasi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. “Ratsionallik” va “irratsionallik” tushunchalarini ijtimoiy ong shakllari rivojlanishi nazariyasi nuqtai nazaridan tadqiq etish katta samara beradi. Chunki, madaniy-tarixiy rivojlanish jarayonida, davrga bog‘liq ravishda ijtimoiy ongning u yoki bu shaklining ustun bo‘lishi kuzatiladi, bu hodisa individlar dunyoqarashiga, ularning olamni his etishiga bevosita ta’sir etadi”.

Ratsional bilim – bu mantiqiy tafakkur, tahlil, induktiv va deduktiv xulosalar, empirik kuzatishlar orqali shakllanadigan bilimlar majmuasidir. U qat’iylik, aniqlik, isbotlanganlik va takrorlanuvchanlik xususiyatlariga ega bo‘lib, ilmiy va texnikaviy faoliyat sohalarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Ratsional bilim insonning muayyan faktlar asosida qaror qabul qilishini,

voqelikni tizimli idrok etishini, murakkab muammolarni strukturaviy hal etishini ta'minlaydi. Shu sababli u tafakkurning tartibga soluvchi va tashkilotchilik rolini bajaradi.

Ratsional bilim – tajriba, kuzatuv, analiz va deduktiv mantiq asosida shakllanadigan bilim turi bo'lib, u faoliyatda aniqlik, izchillik va natijaviylikni ta'minlaydi. U asosan ilmiy metodologiya, texnologik innovatsiya va muhandislik yondashuvlarida asosiy o'rinda turadi. Ratsional bilimning asosiy fazilati – verifikatsiya va reproduksiya imkoniyati, ya'ni bilimlar tajriba orqali tasdiqlanadi va takrorlanadi.

Bilish jarayoni bevosita mushohadadan, moddiy olam narsa va hosidalarini kuzatishdan, ya'ni insonning o'rganilayotgan narsalar bilan sezgi a'zolari orqali o'zaro ta'sirga kirishishidan boshlanadi. Har qanday tafakkur faqat obyektiv olam bilan muloqot jarayonida olingan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi va o'z navbatida, jonli mushohada oddiygina sezgi va idrok bilan aynan bir emas. Bu bilimning sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlarni anglash bilan bog'liq shakli, ammo ushbu ma'lumotlarning o'zi emas. Jonli mushohada xuddi mavhum tafakkur kabi ratsional shakl oladi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, irratsional bilim ong osti holatlari, ichki sezgi, intuitsiya, emotsiyalar, simvolik obrazlar va ruhiy kechinmalar orqali shakllanadi. U insonning subyektiv idroki asosida vujudga keladi va ko'pincha ifoda etilishi qiyin, ammo faoliyatda amaliy natijaga olib keluvchi jarayonlarga asoslanadi. Irratsional bilim ko'proq san'at, diniy-falsafiy tafakkur, mifologik idrok, madaniy estetik qarashlar kabi sohalarida faol namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, insonning kunlik qaror qabul qilish faoliyatida ham irratsional bilimlar sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi — ayniqsa tezkor, noaniq, hissiy fon kuchli bo'lgan vaziyatlarda.

Ratsional bilimni mantiq, tahlil va tajribaga asoslangan tafakkur mahsuli sifatida, irratsional bilimni esa sezgi, intuitsiya va ong osti jarayonlari orqali shakllanuvchi g'oyalar manbai sifatida tahlil qiladi. Faoliyatda ushbu ikki bilim shaklining o'zaro uyg'unlashuvi inson qaror qabul qilishining, ijodiy fikrlashning hamda amaliy harakatlarning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida qaraladi. Bilim inson ongining faol mahsuli sifatida, faoliyat esa shu bilim asosida shakllanadigan tashqi harakatlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Inson tafakkuri va faoliyatining samaradorligini oshirishda ratsional (mantiqiy, asoslangan) hamda irratsional (intuitsiyaviy, hissiy, ong osti) bilimlarning uyg'unlashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy falsafiy va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, inson faoliyatida faqat ratsional qarorlar emas, balki irratsional motivatsiya, intuitiv idrok, simvolik tasavvur va hissiy reaksiyalar ham muhim rol o'ynaydi (Damasio, 2005, p. 125). Ushbu ilmiy izlanishda ana shu integratsion jarayonning mohiyati, ratsional va irratsional bilimlarning o'zaro ta'siri, ular faoliyatga qanday yo'sinda ta'sir ko'rsatishi falsafiy-metodologik jihatdan tahlil

qilinadi. Integratsiya nafaqat tafakkur doirasida, balki real hayotiy muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuvlarni shakllantirish, ijtimoiy va axloqiy qarorlar qabul qilishda ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, bu yondashuv ratsional tafakkurning chegaralarini ochib beradi va insonni yanada chuqurroq ichki idrok bilan tanishtiradi. Natijada, faoliyat ko‘lami faqat tashqi dunyoni o‘zgartirish emas, balki insonning o‘zini anglash, ichki muvozanatini topish va hayotga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirish vositasiga aylanadi. Zamonaviy faoliyat turlari esa bu ikki bilim turining keskin ajratilishini emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi va bir-birini to‘ldiruvchi tabiatini taqozo etadi. Inson faoliyati bir vaqtning o‘zida mantiqiy rejalashtirishni, muqobil yechimlarni tahlil qilishni va ichki sezgi asosidagi harakatlarni o‘zida jamlaydi. Shu sababli, ratsional va irratsional bilimlarning integratsiyasi — insonning harakat strategiyalarini chuqurroq anglash va ularni mukammalroq tashkil etish uchun zarur shartga aylanmoqda.

Ratsional bilimni mantiq, tahlil va tajribaga asoslangan tafakkur mahsuli sifatida, irratsional bilimni esa sezgi, intuitsiya va ong osti jarayonlari orqali shakllanuvchi g‘oyalar manbai sifatida tahlil qiladi. Faoliyatda ushbu ikki bilim shaklining o‘zaro uyg‘unlashuvi inson qaror qabul qilishining, ijodiy fikrlashning hamda amaliy harakatlarning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri sifatida qaraladi. Bilim inson onginging faol mahsuli sifatida, faoliyat esa shu bilim asosida shakllanadigan tashqi harakatlar majmuasi sifatida namoyon bo‘ladi. Inson tafakkuri va faoliyatining samaradorligini oshirishda ratsional (mantiqiy, asoslangan) hamda irratsional (intuitsiyaviy, hissiy, ong osti) bilimlarning uyg‘unlashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy falsafiy va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, inson faoliyatida faqat ratsional qarorlar emas, balki irratsional motivatsiya, intuitiv idrok, simvolik tasavvur va hissiy reaksiyalar ham muhim rol o‘ynaydi.

Ayni vaqtda irratsional bilim, ong osti intuitiv tajriba, estetik idrok, afsonaviy yoki diniy obrazlar orqali shakllanadi. Unga sezgi, tasavvur, fantaziya, ishonch, ramzlar orqali tushunish kabi elementlar kiradi. Bu turdagi bilim san‘at, din, mifologiya va ba‘zan muhim ijtimoiy institutlar faoliyatida ham faol qo‘llaniladi. Garchi irratsional bilim aniq empirik yoki mantiqiy mezonlar orqali o‘lchash imkoniyatiga ega bo‘lmasa-da, u inson tafakkurining ajralmas tarkibiy qismi sifatida intuitsiya, sezgi va estetik ong asosida shakllanadi. Bunday bilim shakli ko‘p hollarda rasmiy mantiqdan tashqarida joylashgan bo‘lib, insonning ichki sezgilari, ichki ovozi yoki “qalb sadosi”ga tayanadi. Aynan mana shu irratsional jarayonlar ko‘plab tarixiy kashfiyotlar, ixtirolar va innovatsion g‘oyalarning paydo bo‘lishida asosiy rolni o‘ynagan.

Masalan, matematiklar yoki fiziklar orasida mashhur bo‘lgan inson tafakkurida kutilmaganda, to‘satdan, avval tushunarsiz yoki yechimi yo‘qdek tuyulgan muammo ustida bir

lahzada yoritilganidek bo'lib, muhim g'oya yoki yechim paydo bo'ladigan on fenomeni – bu irratsional bilimning amaliy ifodasi bo'lib, inson miyasining chuqur qatlamlarida ilgari ongli darajada anglanmagan, ammo sezgi orqali his qilingan yechim yoki g'oyaning yuzaga chiqishidir. Shu sababli, irratsional bilim nafaqat tafakkurning qo'shimcha shakli, balki kognitiv faoliyatning innovatsion manbai sifatida ham qaraladi. Shuningdek, bunday bilim shakli ijodiy faoliyatda – adabiyot, musiqa, san'at va hatto ilmiy gipotezalar ilgari surishda ham muhim ahamiyatga ega. Intuitsiyaga asoslangan qarorlar ko'pincha murakkab holatlarda, aniq tahlillar yetarli bo'lmagan vaziyatlarda samarali natijalarga olib keladi. Chunki inson ong ostida to'plangan tajriba va bilimlar ba'zan ongli tahlildan ko'ra tezroq va noan'anaviy shaklda yechim topishga yordam beradi.

Demak, irratsional bilimlar o'zining aniqlikdan yiroqligi yoki tizimli bo'lmaganligiga qaramay, insoniyat taraqqiyotida, jumladan, tafakkurning yuksalishida, kashfiyotlar va innovatsiyalarning yuzaga kelishida o'ziga xos va inkor etib bo'lmaydigan o'ringa ega. U sezgi va intuitsiya orqali insonning ichki olamini harakatlantirib, ratsional tafakkur bilan o'zaro integratsiyada faoliyatning samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy kognitiv fanlar va falsafa nuqtai nazaridan qaralganda, inson faoliyatida ratsional va irratsional bilimlar bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi va o'zaro uyg'unlashuvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki bilim shaklining faoliyatga tatbiqi insonning qaror qabul qilish, muammo yechish va ijodiy yondashuvlaridagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Faoliyatda ushbu ikki turdagi bilimlarning integratsiyasi bir-birini to'ldiruvchi, ba'zan esa sinergetik ta'sir ko'rsatadi. Masalan, murakkab ijtimoiy qarorlar qabul qilishda insonlar bir vaqtning o'zida analitik (ratsional) yondashuvni va ichki sezgilarini (irratsional) ishga soladi. Bu holat ko'plab sohalarda, jumladan, menejment, pedagogika, siyosat, diplomatiya va shaxslararo muloqotda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu holat shuni ko'rsatadiki, inson faoliyati faqat mantiqiy asoslangan fikrlash bilan emas, balki sezgi, tajriba va ichki intuitiv turtkilarga asoslangan qarorlar bilan ham yo'naltiriladi. Ayniqsa, murakkab va noaniq sharoitlarda ratsional yondashuv yetarli bo'lmagan hollarda, irratsional bilim muhim rol o'ynaydi.

Masalan, diplomatik muzokaralarda qarorlar ko'pincha faktlar va statistik ma'lumotlarga asoslanadi, biroq muzokarachilarning psixologik holati, noverbal signallarni sezish va ichki ishonch kabi omillar muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi bo'lishi mumkin. Shuningdek, pedagogik faoliyatda ham o'qituvchining ratsional rejalashtirilgan metodlari bilan bir qatorda, o'quvchining kayfiyatini, e'tiborini va motivatsiyasini sezish qobiliyati – irratsional bilimga asoslanadi. Bu ikki turdagi bilimlarning sinergiyasi ta'lim sifatini oshirishda muhim vositadir. Natijada,

ratsional va irratsional bilimlarning integratsiyasi nafaqat kognitiv moslashuvchanlikni oshiradi, balki shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'p qirrali fikrlash modelini shakllantiradi. Bu integratsiya zamonaviy jamiyatda qarorlar qabul qilishda kompleks yondashuvni talab qilayotgan har bir soha uchun dolzarb metodologik asosni beradi.

Inson tafakkurining murakkab tabiati ratsional va irratsional komponentlarning o'zaro ta'siri orqali shakllanadi. Aqliy faoliyatda bu ikki turdagi bilimlar ko'pincha birgalikda ishtirok etib, qaror qabul qilish, fikrlash va harakatlantiruvchi motivlar orasida muvozanatni ta'minlaydi. Psixolog Daniel Kahneman bu holatni ikki tizimli fikrlash nazariyasi bilan izohlaydi. Unga ko'ra, 1-tizim – avtomatik, intuitiv, tezkor fikrlashni; 2-tizim – tahliliy, ongli, sekin va ehtiyotkor fikrlashni ifodalaydi. Insonning ko'plab faoliyatlarida bu ikki tizim uyg'un holda ishlaydi. Shunday ekan, ratsional va irratsional bilimlarning bir-birini to'ldirishi – faoliyatning murakkabligini anglash va boshqarish uchun zaruriy shartdir.

Shuningdek, ratsional va irratsional bilimlarning integratsiyasi ijodiy faoliyatda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, badiiy ijod, dizayn, arxitektura yoki startap-loyihalarda innovatsion g'oyalar odatda intuitiv asosda tug'iladi, ammo ularni amalga oshirish ratsional rejalashtirish va texnologik aniqlikni talab qiladi. Bu ikki turdagi bilimlarning sinergiyasi orqali nafaqat yuksak estetik mahsulotlar yaratiladi, balki iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik ham oshadi. Yakunda aytish joizki, insoniyatning madaniy, ilmiy va texnologik yutuqlari ratsional va irratsional bilimlar uyg'unligi natijasidir. Ularning integratsiyasi orqali faoliyatga mazmun, samaradorlik va insoniylik ruhiyati singadi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu dialektika tafakkur va mavjudlik o'rtasidagi uzviy aloqaning amaliy ifodasidir.

Xulosa. Ratsional va irratsional bilimlar o'rtasidagi integratsiya zamonaviy inson faoliyatining tarkibiy jihatlaridan biri sifatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekani ushbu tadqiqot davomida isbotlandi. Inson tafakkuri mantiqiy tahlil va tajribaga asoslangan ratsional yondashuv bilan birga, sezgi, intuitsiya va emotsional holatlar asosidagi irratsional idrokni ham faol tarzda ishga soladi. Ularning har biri faoliyatda turli bosqichlarda namoyon bo'lib, qaror qabul qilish, ijodiy yondashuv, strategik rejalashtirish va insoniy muomala kabi jarayonlarda o'zaro uyg'unlikda harakat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, faqat ratsional yondashuv bilan chegaralanish insonning fikrlash va harakat qilish imkoniyatlarini toraytiradi, irratsional bilim esa unga chuqur intuitsiyaviy anglash va emotsional jihatdan muvozanatli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ayniqsa, noaniqlik yoki tezkor harakatni talab qiluvchi sharoitlarda irratsional idrokning roli sezilarli darajada kuchayadi. Faoliyatni kompleks va samarali tashkil etishda bu ikki bilim shaklining integratsiyasi inson intellekti va ongining to'liq salohiyatini ishga solishga xizmat qiladi. Aynan shu uyg'unlik zamonaviy faoliyat

turlarida, jumladan, ilm-fan, texnologiya, pedagogika, menejment, diplomatiya va ijodiy sohalarda muvaffaqiyatning poydevoridir.

Ushbu integratsion modelni faqat gnoseologik emas, balki ontologik va aksiologik nuqtai nazardan ham tahlil etgan holda, bilim va faoliyat dialektikasining yanada chuqurroq falsafiy manzarasini namoyon etadi. Natijada, ratsional va irratsional bilimlar uyg'unligi nafaqat individual faoliyat samaradorligini, balki insonning o'zini anglash jarayonini ham chuqurlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arifxanova.S.M Ilmiy ratsionallikning mifologik manbalari // Globallashuv sharoitida falsafa va milliy g'oyaning dolzarb masalalari: Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent, 2015. – B. 38.
2. Popper.K. The Logic of Scientific Discovery. – Routledge. 2002. – 544 p.
3. Jo'rayev.A Ijtimoiy bilishda empirik tadqiqotlarning o'rni. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2025. – 127 b.
4. Damasio.A. Descartes' Error: Emotion, Reason, and the Human Brain. — Penguin Books. 2005. – 336 p.
5. Jung.C.G. The Archetypes and the Collective Unconscious. – Princeton University Press, 2009. – 470 p.
6. Kahneman.D. Thinking, Fast and Slow. – Farrar, Straus and Giroux, 2011. – 512 p.